



**IJTIMOY FAOLLIKKA TAYANGAN TARAQQIYOTGA
ERISHISHNING MA'NAVIY ASOSLARI**



Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti

**IJTIMOY FAOLLIKKA
TAYANGAN TARAQQIYOTGA
ERISHISHNING
MA'NAVIY ASOSLARI**

75	O'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda nazariy-ilmiy va innovatsion pedagogik yondashuvlar Norqulov Husniddin Do'sbekovich	415
76	Ijtimoiy boshqaruvga milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ta'siri Mansurova Malohat Yunus qizi	424
77	Milliy qadriyatlarning ijtimoiy apatiyani oldini olishdagi o'rni Tadjibayev Zoxidjon Xatamovich	428
78	Oilada o'smirlarni tadbirkorlikka tayyorlashda "ustoz-shogird" an'analari umuminsoniy qadriyat sifatida D.Q.Oxunova	435
79	Talabalarda aksiologik munosabatni milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish Rafikova Dilafruz Kaxxoralievna	439
80	An'ana va qadriyatlar shaxs shakllanishining asosi sifatida (xitoy xalq respublikasi misolida) Muhiddinova Sarvinoz Nodirjon qizi	446
81	Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yosh mutaxassislar faoliyatining rivojlantirishdagi ahamiyati Xolmirzaeva Jumagul Xamdamovna	450
82	Milliy va umuminsoniy qadriyatlar kontekstida jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy faoliyatga ta'siri Xolmatov Ixtiyor Baxtiyorovich Abdusalomova Gulchexra Bahodirjon qizi	454
83	Ayollar huquqlari va gender tengligi: zamonaviy jamiyatdagi o'zgarishlar va muammolar Kalandarova Ferangiz Azamatovna Atayeva Zarina Ziyodullayevna	462

AYOLLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI: ZAMONAVIY JAMIYATDAGI O‘ZGARISHLAR VA MUAMMOLAR

Kalandarova Ferangiz Azamatovna,

*Buxoro davlat universiteti “Ijtimoiy-siyosiy
fanlar kafedrası” o‘qituvchisi,*

Atayeva Zarina Ziyodullayevna,

*Buxoro davlat universiteti,
Tarix va yuridik fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Gender tengligi va ayollar huquqlari inson huquqlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi teng ishtiroki – adolatli va barqaror jamiyat qurilishining muhim omillaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasida ham gender tengligini ta’minlash, ayollarga nisbatan kamsitishni bartaraf etish va ularning huquqiy maqomini mustahkamlash bo‘yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tarixiy rivoj, mavjud muammolar, erishilgan yutuqlar va istiqbolli yo‘nalishlar orqali gender tengligiga erishish yo‘llari yoritiladi. Ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratish orqali jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy barqarorlikka erishish mumkinligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zi: Gender tengligi, ayollar huquqlari, inson huquqlari, ijtimoiy adolat, oila va jamiyat, zo‘ravonlikka qarshi kurash, qonunchilik, ayollar ishtiroki, teng imkoniyatlar, qonun.

Gender tengligi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotning ajralmas omillaridan biri hisoblanadi. Bu tushuncha faqat erkaklar va ayollar o‘rtasidagi huquqiy tenglikni emas, balki ular uchun hayotning barcha jabhalarida teng imkoniyatlar yaratishni anglatadi⁴⁰. Gender tengligi prinsipining amalga oshirilishi nafaqat inson huquqlarini ta’minlaydi,

⁴⁰ UN Women. Understanding Gender Equality. New York: UN Publications 2020.

balki ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishning kafolati sifatida ham qaraladi⁴¹.

O'zbekiston Respublikasida gender tengligi sohasida davlat siyosatining shakllanishi mustaqillik yillarida boshlangan bo'lib, so'nggi o'n yillikda bu yo'nalishda tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan "Gender tengligi to'g'risida"gi Qonun ushbu sohadagi huquqiy asosni mustahkamladi⁴². Qonunga muvofiq, ayollar va erkaklar har qanday sohada teng huquqlarga ega bo'lishlari kafolatlanadi.

Shuningdek, 2021–2025-yillar uchun mo'ljallangan Gender tengligini ta'minlash bo'yicha milliy strategiya qabul qilinib, unda ayollar huquqlari, gender tahlil, ijtimoiy xizmatlar, bandlik va ta'limdagi tenglik masalalari qamrab olingan⁴³. Gender masalalarini muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzurida Gender tengligi bo'yicha komissiya faoliyat yuritmoqda.

O'zbekistonda ayollar siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etmoqda. Masalan, 2019-yilda bo'lib o'tgan parlament saylovlari natijasiga ko'ra, Qonunchilik palatasi deputatlari orasida ayollar ulushi 32 foizni tashkil etdi, bu esa mintaqadagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir⁴⁴. Bundan tashqari, davlat idoralarida rahbar ayollar soni ortib bormoqda.

Iqtisodiy sohada ham ayollarning faolligi oshmoqda. Xususan, 2021–2023-yillar davomida "Ayollar daftari" tizimi orqali 1 milliondan ortiq ayollar bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rildi⁴⁵. "Ayollarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish" davlat dasturi doirasida kreditlar, subsidiya va grantlar orqali ularning moliyaviy mustaqilligi qo'llab-quvvatlanmoqda.

Yuqorida keltirilgan yutuqlarga qaramay, O'zbekistonda gender tengligi yo'lida bir qator tizimli muammolar mavjud. Ular orasida eng dolzarb masalalar quyidagilardan iborat:

⁴¹ World Economic Forum. Global Gender Gap Report, 2022.

⁴² O'zbekiston Respublikasining "Gender tengligi to'g'risida"gi Qonuni, 2019.

⁴³ O'zbekiston Respublikasi Gender strategiyasi (2021-2025)

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi statistikasi, 2020.

⁴⁵ "Ayollar daftari" loyihasi doirasidagi faoliyat natijalari, xotin-qizlarqo'mitasi.uz, 2023.

- qishloq joylarda yashovchi ayollar uchun ta'lim va ish bilan bandlik imkoniyatlarining cheklanganligi;
- ayollarga nisbatan zo'ravonlik holatlarining davom etayotganligi;
- gender stereotiplari va patriarxal ijtimoiy qadriyatlarning saqlanib qolganligi;
- mehnat bozorida ayollar va erkaklar o'rtasidagi maosh tafovutlari mavjudligi⁴⁶.

BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda gender tengligi indeksi so'nggi yillarda ijobiy tomonga o'zgarayotgan bo'lsa-da, ayollar salohiyatidan to'liq foydalanilmayapti⁴⁷.

Gender tengligini ta'minlash uchun quyidagi yo'nalishlarda ishlarni kuchaytirish lozim:

- genderga asoslangan qonunchilikni yanada takomillashtirish;
- ta'lim tizimida gender madaniyatini shakllantirish;
- ommaviy axborot vositalarida ijobiy ayol obrazini keng targ'ib qilish;
- mahalliy darajadagi gender byudjetlashtirish amaliyotini joriy etish;
- xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashda profilaktika, huquqiy yordam va reabilitatsiya xizmatlarini kuchaytirish⁴⁸.

O'zbekistonda gender tengligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy tashabbuslar ayollar huquqlarini ta'minlash va ularning jamiyatdagi o'rni, shuningdek, faoliyatdagi imkoniyatlarini kengaytirish uchun katta ahamiyatga ega. Hukumat tomonidan qabul qilingan qonunlar, strategiyalar va davlat dasturlari gender tengligini ta'minlashda sezilarli yutuqlarga erishilishiga yordam bermoqda. Xususan, ayollar siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etmoqda va iqtisodiy sohada ham ularga keng imkoniyatlar yaratish uchun ko'plab tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, gender tengligi yo'lida muammolar hamon mavjud bo'lib, ularga qarshi samarali kurashish zarur.

⁴⁶ UNFPA Uzbekistan. Gender-Based Violence Assessment, 2022.

⁴⁷ UNDP Uzbekistan: "Gender and Development" annual report, 2023

⁴⁸ BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi tavsiyalari, 2021

Oxirgi yillarda ayollarga nisbatan zo‘ravonlik, ularning turlari va buning oqibatida yuzaga kelayotgan ijtimoiy muammolar turli yo‘llar orqali keng jamoatchilikka yetkazilyapti. Shuningdek, ko‘pchilik ayollar o‘z huquqlari, zo‘ravonlikka asoslangan munosabat va hayot tarzi haqida ko‘plab ma‘lumotlarga ega bo‘lib borishyapti. Eng quvonarlisi ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashish mahalliy emas, balki umumdavlat darajasida amalga oshirilmoqda. Bunga misol qilib, ushbu masalaga oid oxirgi yillarda qabul qilingan va bugungi kunda o‘zining samarali ijrosini topayotgan bir qancha huquqiy asoslarini keltirib o‘tish mumkin. Jumladan, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo‘nalishi bo‘yicha amaliy tadbirlar rejasi ijrosini ta‘minlash, zo‘ravonlikdan aziyat chekkan shaxslarga ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmat sifatini takomillashtirish, xotin-qizlarning huquqlari kafolatlarini ta‘minlash maqsadida:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 10-mayda qabul qilingan “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar” PQ-175 sonli qarori,

yil 19-mayda qabul qilingan “Zo‘rlik ishlatishdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qoshimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5116 sonli qarori,

2024-yil 25-iyunda qabul qilingan “Tazyiq va zo‘ravonlikka uchragan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlariga ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 354-son qarori,

2019-yil 19-avgustda qabul qilingan ”Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni kabi hujjatlar qabul qilinib, ular bu masaladagi muammolarning bartaraf etish yoki qisman oldini olishda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Tizimli muammolar, jumladan, qishloq joylaridagi ayollar uchun cheklangan imkoniyatlar, zo‘ravonlik holatlari va gender stereotiplari kabi masalalar ijtimoiy tizimda chuqur ildiz otgan. Bunday muammolarni hal

qilish uchun genderga asoslangan qonunchilikni yanada mustahkamlash, ta'lim tizimida gender tengligini targ'ib qilish, ommaviy axborot vositalarida ijobiy ayol obrazini keng tarqatish va mahalliy darajadagi gender byudjetlashtirishni joriy etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UN Women. "Understanding Gender Equality." 2020.
2. World Economic Forum. Global Gender Gap Report, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasining "Gender tengligi to'g'risida"gi Qonuni, 2019.
4. O'zbekiston Respublikasi Gender strategiyasi (2021-2025)
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi statistikasi, 2020.
6. "Ayollar daftari" loyihasi doirasidagi faoliyat natijalari, xotin-qizlarqo'mitasi.uz, 2023.
7. UNFPA Uzbekistan. Gender-Based Violence Assessment, 2022.
8. UNDP Uzbekistan: "Gender and Development" annual report, 2023.
9. BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi tavsiyalari, 2021.

QADRIYATLARNING YOSHLAR VA JAMIYAT RIVOJIGA TA'SIRI

Matupayeva Sh.Z,
CHDPU Maxsus pedagogika kafedrası
katta o'qituvchisi, pf.f.d (PhD)
Tosheva Marhabo Hamzayevna,
Abdurazzoqova Maftuna Olimjon qizi,
ChDPU Maxsus pedagogika: logopediya
yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadriyatlarning yoshlar tarbiyasi va jamiyat rivojidadagi o'rni tahlil qilinadi. Qadriyatlar shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotida, ijtimoiy munosabatlar tizimining shakllanishida va